

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 41 824,9 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 40 869,6 mlrd. so‘mni (103,6 %), o‘rmon xo‘jaligi 787,7 mlrd. so‘mni (102,5 %), baliqchilik xo‘jaligi 167,6 mlrd. so‘mni (117,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,9 % ni tashkil qildi.



41 824,0
mlrd. so‘m




01 40 869,6 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar


02 787,7 O‘rmon xo‘jaligi

03 167,6 Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati



Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (5 250,1 mlrd. so‘m) va Ishtixon (4 343,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on (182,2 mlrd. so‘m) va Samarqand (240,5 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yig'imi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 259,8 ming tonna sabzavot yetishtirildi.

2024-yilning yanvar-sentabrida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

	Fermar xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda
Sabzavotlar	775,7	101,5	461,3	100,7	22,7	124,7




Dehqonchilik


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi **21 617,1** mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,0 foizni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,2 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




*yetishtirilgan mahsulotlarning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,
% da*



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 259,8 ming tonna (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 101,6 foiz ko'p) sabzavotlar yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmining 36,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

**Samarqand viloyati bo'yicha
sabzavotlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Chorvachilik



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi **18 995,6 mlrd. so‘mni** yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan **104,2 %** ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi **46,8 %** ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda **240,6 ming tonna** (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan **3,9 %** ga ko‘p) go‘sht yetishtirildi, **1 089,1 ming tonna** (**3,9 %** ga ko‘p) sut sog‘ib olindi, **1 082,1 mln. dona** (**5,1 %** ga ko‘p) tuxum olindi va **7 043,6 tonna** (**17,9 %** ga ko‘p) baliq ovlandi.




Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 240,6 ming tonna (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,9 % ga ko'p), go'sht yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 80,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Samarqand viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming tonna




Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da




Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 089,1 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 90,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Samarqand viloyati bo'yicha yetishtirilgan sut hajmi, ming tonna




Hajmi, mln.dona




Tuxum

O'sish sur'ati, % da




**Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, % da**




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 082,1 mln.dona tuxum (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 46,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

**Samarqand viloyati bo'yicha olingan
tuxum yetishtirish hajmi, mln dona**




Baliq


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7,0 ming tonna (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 17,9 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 92,5 foizi fermer xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Samarqand viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,0 % fermer xo'jaliklari ulushiga, 92,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,0 % fermer xo'jaliklariga, 85,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari 5,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 17,3 % fermer xo'jaliklariga, 79,7 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 3,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 38,3 % fermer xo'jaliklariga 42,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 19,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 721,5 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 31,7 ming boshga (1,9 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 93,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

● Fermer xo'jaliklari



● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


**Samarqand viloyati bo'yicha
yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh**



Sigirlar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2024-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- sigirlarning umumiy bosh soni 738,0 ming boshga yetdi.
- sigirlarning bosh soni 2023-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 13,2 ming boshga (1,8 %) ko'paydi.
- sigirlar bosh sonining 93,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Samarqand viloyati bo'yicha sigirlarning bosh soni, ming bosh




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Qo'y va eshkilar



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari


Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2024-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- qo'y va eshkilarning umumiy bosh soni 2 640,4 ming boshga yetdi.
- qo'y va eshkilarning bosh soni 2023-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 54,1 ming boshga (2,1 %) ko'paydi.
- qo'y va eshkilar bosh sonining 85,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Samarqand viloyati bo'yicha qo'y va eshkilarning bosh soni, ming bosh




Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2024-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 29 849 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2023-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 990 boshga (3,4 %) ko'paydi.
- otlar bosh sonining 79,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Samarqand viloyati bo'yicha otlarning bosh soni, bosh

